SIRDARYO VILOYATI SHIRIN SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2025-yil 6-may | 85-9-131-Q/25 | Shirin shahar hokimligi

Shirin shahrida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan shahardagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 21[1]-moddalari, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomning 39-bandiga asosan shaharda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Shirin shahrida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Shahar hokimining o‘rinbosari F.Alimov, shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (J.Jumanazarov), shahardagi umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

3. Belgilansinki, shahardagi umumta’lim muassasa rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblanadi.

4. Shirin shahar hokimligi matbuot xizmati rahbari (K.Azimjonov) va “Shirin sadosi” gazetasi muharriri (O.Ashurkulov) mazkur qarorning shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi hamda “Shirin sadosi” gazetasida rasman e’lon qilinishini ta’minlasin.

5. Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari F.Alimov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **N.Xazratkulov**

Shirin shahar hokimining
2025-yil 6-maydagi
85-9-131-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Shirin shahrida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)
RO‘YXATI

T/r	Umumta’lim muassasasi tartib raqami	Umumta’lim muassasasi joylashgan manzili	Umumta’lim muassasasiga biriktirilgan hudud (yoki ko‘cha)
1.	Shirin shahar 1-sonli umumta’lim maktabi	Shirin shahar Amir Temur mahallasida	Amir Temur va Do‘stlik MFY (1-uy, 2-uy, 3-uy, 4-uy, 5-uy, 6-uy, 7-uy, 8-uy, 9-uy, 10-uy, 11-uy, 12-uy, 13-uy, 14-uy, 15-uy, 1-uy, 2-uy, 3-uy, 4-uy, 5-uy, 6-uy, 7-uy, 8-uy, 9-uy,10-uy, Buyuk Turon, Xalqlar Do‘stligi, Shuhrat, Ibn Sino, Yurtsevar berk, Ibn Sino 1-berk, Ibn Sino 2-berk, Ittifoq, Ittifoq tor, Ittifoq berk ko‘chalari)
2.	Shirin shahar 2-sonli umumta’lim maktabi	Shirin shahar Farhod mahallasida	Farhod MFY (Ahillik, Shodlik, Bunyodkor, Tinchlik, Munavvar, Tabassum, Tejamkor, Birdamlik, Tarovat, Fidokor, Barqaror, Ziyokor, Jozibador, Bo‘ston, Nurafshon, Namuna, Nurli yo‘l, Alisher Navoiy, Zahiddin Muhammad Bobur, Yangi dunyo, Istiqlol, Diyonat, Abu Rayhon Beruniy, Umid, Barhayot, Matonat, Elparvar, Zarafshon, Erksevar, Yuksalish, Chig‘atoy, Sharq yulduzi, Istiqbol, Charog‘on, Turon, Taraqqiyot, Binokor, Zarbdor, Orzu, Nurafshon tor, Abu Rayhon Beruniy tor, Bo‘ston tor, Jozibador tor, Nurli yo‘l tor, Munavvar tor-1, Namuna tor, Ziyokor tor, Yuksalish berk, Ahillik berk, Diyonat berk, Shodlik berk, Abu Rayhon Beruniy berk-1, Abu Rayhon Beruniy berk-2, Jozibador berk-1, Jozibador berk-2, Jozibador berk-3, Jozibador berk-4, Ziyokor berk-1, Ziyokor berk-2, Ziyokor berk-3, Ziyokor berk-4, Diyonat berk-2, Munavvar berk-1, Munavvar berk-2, Tabassum berk-1, Tabassum berk-2 ko‘chalari)

3.	Shirin shahar 3-sonli umumta’lim maktabi	Shirin shahar Mirzo Ulug‘bek mahallasida	Mirzo Ulug‘bek, Vatanparvar va Bunyodkor MFY(1-uy, 2-uy, 3-uy, 4-uy, 5-uy, 6-uy, 7-uy, 8-uy, 9-uy, 10-uy, 11-uy, 12-uy, 13-uy, 14-uy, 15-uy, 16-uy, 17-uy, 18-uy, 19-uy, 20-uy, 1-uy, 2-uy, 3-uy, 4-uy, 5-uy, 6-uy, 7-uy, 8-uy, 9-uy, 10-uy, 11-uy, 12-uy, 1-uy, 2-uy, 3-uy, 4-uy, Mahorat, Qadriyat, Baraka, O‘rikzor, Ma’rifat, Navbahor, Fazilat, Markaziy, Farovon, Yurtsevar, Tafakkur, Hilol, Nastarin, Metallurglar, Xalqlar Do‘stligi ko‘chalari)
4.	Shirin shahar 4-sonli umumta’lim maktabi	Shirin shahar Nurobod MFYda	Nurobod MFY (Mustaqillik, Navro‘z, Hamjihat, Oydin, Obod yo‘l, Quvonch, Qahramon, Nihol, Mirishkor, Madadkor, Yangi asr, Temiryo‘lchilar, Iftihor, Ziynat, Yoshlik, Navro‘z berk- 1, Navro‘z berk-2, Navro‘z berk-3, Navro‘z berk-4, Navro‘z berk-5, Navro‘z tor-1, Navro‘z tor-2, Navro‘z tor-3, Madadkor berk, Yoshlik berk, Yangi asr berk, Nihol berk-1, Nihol berk-2 ko‘chalari)